

Bo'sh ish o'rinlari

<http://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/company/vacancy>

«O'zkimyosanoat» AJ O'zbekiston Respublikasining kimyo korxonalarining birlashtiridigan korporativ tuzilma hisoblanadi. Jamiyat kimyo korxonalarining rivojlantirish uchun sanoat, innovatsion, marketing dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu bilan sanoatning barqaror rivojlanishini olib boradi.

Jamiyat tuzilmasiga 14 sanoat korxonalar, ilmiy tekshirish va loyixa institutlar, «Kimetrans» va «Kimyotrans-logistik» tashqi-iqtisodiy transport-ekspeditsiya tashkilotlar hamda «Xamkor-kimyoservis» brokerlik tashkilotlar kiradi.

16.02.2022y. holatiga

t/r	Departament, boshqarma, bo'limning nomi	Lavozim nomi	Nomzodlarga qo'yiladigan talablar	Asosiy xizmat vazifalari
1	Rahbariyat	Boshqaruv raisining investitsiya masalalari bo'yicha maslahatchisi	<ul style="list-style-type: none">- oliy ma'lumot (iqtisod yo'nalishi);- rus va ingliz tillarini bilishi;- horijiy tajribaga egaligi;- kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel);- kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyati;- katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash;- stressga chidamlilik;- og'zaki va yozma nutq savodxonligiga ega bo'lishi;- natijaga yo'naltirilganlik, faol hayotiy pozitsiya xislatlari.	Investitsiyalarning ichki va tashqi manbalarini aniqlaydi hamda o'rganadi, korxonaning investitsiya siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari samaradorligini tahlil qiladi.

2	Yig'ma axborot-tahlil departamenti	Ro'yxatga olish va ijro intizomini nazorat qilish bo'limi boshlig'i	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisod yo'nalishi); - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyati; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlay olish; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - stressga chidamlilik; - rahbarlik lavozimlarida kamida 5 yillik mehnat staji. 	Topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini tashkil etish hamda nazorat qilish, direktiv hujjatlar ijrosini ta'minlash bilan bog'liq masalalar bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.
3	Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti	Bosh mutaxassis (fosforli o'g'itlar va organik kimyo bo'yicha)	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (noorganik va organik moddalar kimyosi yo'nalishida); - kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyati; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlay olish; - stressga chidamlilik; - fosforli o'g'itlar va organik kimyo (ammofos va boshqa murakkab o'g'itlar) ishlab chiqarish sohasida kamida 5 yillik mehnat staji. 	Sanoatning fosforli mineral o'g'itlar, shuningdek, organik kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlari hamda ushbu korxonalarni asosiy turdagi xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash masalalarini, shu bilan birga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini ishini tezkor nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

4	Sanoat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, mehnat muhofazasi va ekologiya bo'limi	Bosh mutaxassis (favqulodda vaziyatlar va mehnat muhofazasi bo'yicha)	<ul style="list-style-type: none"> - oliy-texnik yoki harbiy ma'lumot; - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - stressga chidamlilik; - sohada kamida 3 yillik mehnat staji. 	Alohida davr uchun tarmoq obyektlari faoliyati barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi, "O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subektlarda favqulodda vaziyatlarga shay holatga keltirish hamda o'ta muhim va toifalarga ajratilgan obektlarni muhofaza qilish bo'yicha tashkiliy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.
5	Sanoat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, mehnat muhofazasi va ekologiya bo'limi	Bosh mutaxassis (bosh ekolog)	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot; - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - stressga chidamlilik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlay olish; - soha bo'yicha muhandis-texnik lavozimlarda kamida 3 yillik mehnat staji. 	Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining bajarilishini nazorat qiladi, amaldagi ekologiya sohasiga oid qonun hujjatlariga, sanoatda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalar, standartlar va qoidalarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.
6	Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, import xaridlarni optimallashtirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv bo'limi	Yetakchi mutaxassis	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisodchi, menejment); - rus va ingliz tillarini bilishi; - horijiy tajriba; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - og'zaki va yozma nutq savodxonligiga ega bo'lishi. 	Tashqi iqtisodiy aloqalarning ilg'or yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

7	Mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'limi	Bosh mutaxassis	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (kimyo-texnologiya yo'nalishi); - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - kimyo-sanoati sohasida kamida 5 yillik mehnat staji. 	<p>"O'zkimyosanoat" AJning tayyor mahsulot, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun tavsiya etilgan mahsulotlarning pasportlarini ishlab chiqish va vakolatli organlar bilan kelishish ishlarini muvofiqlashtiradi.</p>
8	Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti	Mehnat va ish haqi bo'yicha bosh iqtisodchi	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisodiy yoki muhandislik-iqtisodiy yo'nalishi); - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - sohada kamida 3 yillik mehnat staji. 	<p>Mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash bo'yicha xarajatlar smetasini rejalashtiradi, tarmoq korxonalarini va tashkilotlarini shtatlar intizomi nuqtayi nazaridan har tomonlama tahlil qiladi, xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari tarmoq klassifikatorini takomillashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi, mehnatni tashkil etish, mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarini takomillashtiradi, tarmoq korxonalarini xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.</p>

9	Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti	Bosh mutaxassis (biznesni rejalashtirish bo'yicha)	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisodiy yoki muhandislik-iqtisodiy yo'nalishi); - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - sohada kamida 3 yillik mehnat staji. 	Ishlab chiqarish zahiralari aniqlagan holda, ular faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida tarmoq korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kompleks tahlil qiladi, biznes-rejadagi asosiy maqsadli ko'rsatkichlarning (tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotishdan tushgan tushum, sof foyda, mahsulot rentabelligining) bajarilishini har chorakda tahlil qiladi.
10	Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti	Xarajatlarni tahlil qilish va tannarxni kamaytirish bo'limi bosh mutaxassisi	<ul style="list-style-type: none"> - oliy texnik ma'lumot; - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - sohada kamida 3 yillik mehnat staji. 	O'tkazilgan tahlillar asosida ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, tejamkorlikni ta'minlash, yo'qotishlar va samarasiz xarajatlarni bartaraf etish, xarajatlarni kamaytirish uchun mavjud zaxiralarni aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, yoqilg'i-energetika va boshqa resurslarni tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritadi.

11	Moliya, g'aznachilik operatsiyalari va xaridlar departamenti	Bosh mutaxassis	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisod yo'nalishi); - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - sohada kamida 3 yillik mehnat staji. 	<p>"O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi sanoat korxonalari faoliyatini tavsiflovchi moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha oylik, choraklik, yillik materiallarni to'playdi, jamlaydi va tahlil qiladi, "O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga kiruvchi sanoat korxonalariga berilgan xorijiy valyutadagi, milliy so'mdagi va boshqa uzoq va qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lash yuzasidan monitoring olib boradi va takliflar tayyorlaydi.</p>
12	Buxgalteriya va korporativ hisoboti boshqarmasi	Bosh buxgalter o'rinbosari	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot; - o'zbek va rus tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel), 1S-buxgalteriya dasturi (8.2-8.3 versiya); - MHXS (MSFO) sertifikati; - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - yetakchi buxgalter yoki bosh buxgalter o'rinbosari lavozimida kamida 5 yillik mehnat staji. 	<p>"O'zkimyosanoat" Ajning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida manfaatdor ichki va tashqi foydalanuvchilardan to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish uchun buxgalteriya hisobini tashkil etadi va yuritadi, "O'zkimyosanoat" AJ faoliyatining o'ziga xosligi, tuzilmasi, hajmi, tarmoqqa mansubligi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga va MHXS (MSFO) hamda BHMS (NSBU)ga muvofiq hisob siyosatini shakllantiradi.</p>

13	Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti	Bosh mutaxassis	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisod yo'nalishi); - rus va ingliz tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - investitsiya loyihalari sohasida kamida 5 yillik mehnat staji. 	Investitsiya loyihalarini amalga oshirish, kimyo sanoati korxonalarini texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, investitsiya dasturlarini amalga oshirishning texnik-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qiladi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.
14	Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti	Yetakchi mutaxassis	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisod yo'nalishi); - rus va ingliz tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - investitsiya loyihalari sohasida kamida 3 yillik mehnat staji. 	Potensial investorlar va texnologiya litsenziarlari bilan muzokaralar olib borishda, texnik va tijorat takliflarini so'rab olish va tahlil qilishda, investitsiya loyihalarini shakllantirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi.
15	Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti	Investitsiyani istiqbolli rivojlantirish bo'limi boshlig'i	<ul style="list-style-type: none"> - oliy ma'lumot (iqtisod yo'nalishi); - rus va ingliz tillarini bilishi; - kompyuter dasturlarida erkin ishlash (Word, Excel); - kommunikativlik; - katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash; - stressga chidamlilik; - analitik-tahlil qilish qobiliyati; - investitsiya loyihalari sohasining rahbarlik lavozimlarida kamida 5 yillik mehnat staji. 	Investitsiya loyihalarini amalga oshirish, kimyo sanoati korxonalarini texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, yangi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish, mavjudlarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini baholashni amalga oshiradi.

Ish sharoitlari:

- 5/2 ish haftasi;
- ish vaqti 9-00 dan 18-00 gacha;
- xizmat safarlariga borish ehtimoli;
- O'zR MK talablari asosida rasmiylashtirish;
- qulay ofisdagi ish joyi;
- korporativ aloqa;
- yuksak motivatsiya va ijtimoiy to'plam;
- korxonada hisobidan o'qitish va malaka oshirish;
- do'stona va o'z kasbini egalari jamoasi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni (+99878) 140 74 39 telefon orqali olishingiz mumkin